



Adabiyot fanida fanlararo integratsiyadan foydalanish

Ahmedova Hilolaxon

Andijon viloyati, Asaka tumani 10-umumiy o'rta
ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola muallifi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida o'quvchilarga adabiyot fanida fanlararo integratsiyadan foydalanish hamda uni anglagan holda bilimini o'zlashtirishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, fanlararo, intellektual bilim, psixologik bilim, amaliy kompleks, kompetentli o'qituvchi, maktab integratsiyasi, fan integratsiyasi, ma'lumotlarni integratsiyalash.

Ilmu-fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha integratio so'zidan olingan bo'lib qo'shilish, birlashish ma'nolarini anglatadi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning



izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir. Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o'rganish uchun o'qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o'rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o'zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlashi va olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi. Fanlararo aloqa xarakteridagi integratsiyalashgan darslar tizimi ma'lum o'quv fani bo'yicha yil davomidagi mashg'ulotlarning maksimal qismini tashkil etishi lozim. O'zlashtirilgan bilimlarning har xil aspektida ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalarning ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg'ular asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg'udosh bo'lish singari jihatlardan rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarida adabiy ta'lim, fan va maktab integratsiyasi ta'limiy, ilmiy va amaliy potensialdan umumiy manfaatlar yo'lida foydalanishni nazarda tutadi. Ma'lum faoliyatlarning integratsiyalashuvi jarayoni samaradorlik va tejamkorlikni ta'minlaydi, ilmiy jarayonni jadallashtiradi, ayni zamonda dunyo hamjamiyatidagi fan va oliy ta'limning intellektual potensialidan unumli foydalanish imkonini beradi. Adabiy ta'limda mavjud tajribalarni umumlashtirish, tahlillash va foydalanish bu jarayonning barcha ishtirokchilariga katta samara keltirishi mumkin. Adabiy ta'lim, fan va maktabning integratsiyalashuvi bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'limi jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko'rish mumkin:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;
- oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedra va maktab o'quvmetodik birlashmalari



integratsiyasi;

- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi;
- talabalarni ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;

mutaxassislar va talabalarning ijodiy jamoasi integratsiyasi va hk.18.

Adabiy ta'limni integratsiyalash bo'yicha taqdim etilgan bu shakllarning har biri alohida ta'lim muassasalari va turli shartsharoitlarda o'z xususiyatiga ega, albatta. Ayni zamonda, ta'lim amaliyotini integratsiyalashning bu shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud. Masalan, «o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi»da bo'lajak adabiyot o'qituvchisining adabiyot va ona tili o'qitish metodikasi, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va boshqa fanlar orqali o'zlashtirgan bilimlarini maktab amaliyotida, badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo'llay bilishi nazarda tutiladi. Shu maqsadda oliy pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotlar tashkil etilgan.

Oliy o'quv yurtining faoliyati maktab bilan hamkorliksiz samarali bo'lmaydi. Shu ma'noda oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Garchi maktab ham, oliy o'quv yurti ham uzluksiz ta'limning turli bosqichlari bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda ularning integratsiyasi taqozo etiladi.

Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari adabiyot o'qitish metodikasi kafedralari maktablardagi ona tili va adabiyot bo'yicha o'quv-metodik birlashmalari bilan hamkorlik qilishi, bir-birini zaruriy ilmiy yangiliklar, nazariy bilimlar va amaliyotdagi o'zgarishlar bilan tanishtirib borishi zarurdir. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari ham ta'lim markazlarining ish faoliyati, dastur, darslik va boshqa didaktik ashyolarning yaratilish jarayoni, ularga qo'yilayotgan talablar haqida tasavvurga ega bo'lishlari o'ta foydalidir. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalarini «ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi» shakli ham kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir inson o'ziga yarasha qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlarga ega. Oliy ta'lim tizimida talabalarga xos individual xususiyatlarni ilg'ab, ularni ma'lum sohalarga



yo'naltirishlari uchun bunday integratsiya katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarini maktablarda ish olib borayotgan tajribali o'qituvchilar, olimlar, shoir va yozuvchilar bilan hamkorlik qilishi, bu sohalarning xususiyatlaridan xabardor bo'lishi «mutaxassislar va talabalarning ijodiy jamoasi integratsiyasi»ni yuzaga keltiradi. Davr bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining oldiga yangicha talablar qo'ymoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ularning ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi. Kelajakda adabiyot o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan talabalarning adabiy ta'lim bo'yicha olgan bilimlari o'qitish amaliyotida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, san'atshunoslik fanlari bo'yicha bilimlari bilan bevosita, ruhshunoslik, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi. Masalan, Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini o'tishda tarix fani; O'. Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini o'rganishda ruhshunoslik fani; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini o'rganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o'rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o'rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi singari adabiy materiallarning mohiyatiga kirishda zoologiya fanlariaro aloqadorlikka tayanish, ya'ni shu o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalagan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishda olgan bilimlari ham ma'lum darajada asqotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I.Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent, O'zbekiston. 1996 yil.
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, "SHarq", 1997 yil.
3. A.Zunnunov, N.Xotamov, J.Esonov, A.Ibraximov. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent "O'qituvchi", 1992 yil.
4. K.Yuldoshev, Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, "O'qituvchi", 1996 yil.
5. K.Yuldoshev, O. Madaev, A.Abdurazzoqov, Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 1994 yil. Dasturiy qo'llanma.
6. S.Matjon, Maktabda Adabiyotdan mustaqil ishlar, "O'qituvchi", Toshkent. 1997 yil.
7. B.Tuxliyev, S.Matjonov. "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent. 2000 yil.
8. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Sharq", Toshkent. 2006,2008,2011.
9. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent. 2012.